



TOPONOMIK JOY NOMLARI

Rajabova Xulkaroy

Guliston davlat pedagogika instituti

Toponimika (lotincha topos — joy, onoma — ism) — joʻgʻrofiy nomlarning paydo boʻlishi, rivojlanishi, oʻzgarishi va toʻgʻri yozilishini oʻrganuvchi fan.

Toponimika (yun. topos — joy va onyma — ism, nom) — onomastikattt joy nomlari (geografik atoqli nomlar)ni, ularning paydo boʻlishi yoki yaratilish qonuniyatlarini, rivojlanish va oʻzgarishini, tarixiyetimologik manbalari va grammatik xususiyatlarini, ularning tuzilishini, tarqalish hududlari hamda atalish sabablarini oʻrganuvchi boʻlimi. Muayyan bir hududdagi joy nomlari majmui — toponimiya, alohida olingan joy nomi esa toponim deb ataladi. Toponimlar ham, til leksikasining bir qismi sifatida boshqa hamma soʻzlar singari til qonuniyatlariga boʻysunadi, lekin oʻzining paydo boʻlishi va baʼzi ichki xususiyatlari jihatidan jamiyatning kundalik moddiy va maʼnaviy holati, iqtisodiy turmushi, orzu va intilishlariga aloqador boʻlib, maʼlum darajada boshqa guruh soʻzlardan farq qiladi. Shu bilan birga, toponimlarda milliy tilimizga xos boʻlgan qadimiy fonetik, leksik va morfologik elementlar koʻproq saqlangan boʻladi. Joyning tabiiy geografik sharoiti (relyef), aholining etnik tarkibi, kishilarning kasbi va mashgʻuloti, qazilma. boyliklar, tarixiy shaxslar va voqealar toponimlar vujudga kelishining asosiy manbalari hisoblanadi.

Toponomika geografiya, tarix, etn. bilan chambarchas aloqada rivojlanadi. Toponimiya til tarixi (tarixiy leksikologiya, dialektologiya, etimologiya va boshqalar)ni tadqiq etishda muhim manba hisoblanadi, chunki baʼzi toponimlar (ayniqsa, gidronimlar) arxaizm va dialektizmlarni oʻzgartirmasdan barqaror saqlab qoladi, koʻpincha muayyan hududda yashagan xalklarning substrat tillariga borib taqaladi. Toponomika xalqlarning tarixiy oʻtmishi xususiyatlarini jonlantirishga, ularning joylashish chegaralarini belgilashga, tillarning oʻtmishdagi tarqalish hududlarini, madaniy va iqtisodiy markazlar, savdo yoʻllari va sh. k. geografiyasini tavsiflashga yordam beradi. Toponimlarning amaliy transkripsiyasi, ularning dastlabki asosga koʻra hamda bir xil yozilishi, boshqa tillarda berilishi Toponomikaning amaliy jihati hisoblanadi.

Toponimlar yirik yoki mayda obʼyektlarning nomlari ekanligiga qarab makrotoponimlar va mikrotoponimlarga ajratiladi: makrotoponimlar — keng hududlar, katta obʼyektlar (materiklar, okeanlar, togʻlar, choʻllar, daryolar, shaharlar, qishloqlar va shu kabi)ning atokli otlari; mikrotoponimlar — kichik obʼyektlar (jarliklar, tepaliklar, quduqlar, koʻchalar, qoʻrgʻonlar va shu kabi) ning atokli otlari. Lekin toponimlarni bunday tasnif qilish shartli, chunki koʻpincha makrotoponim bilan mikrotoponimni farqlash qiyin.

Turli xil geografik obʼyektlarni atovchi nomlarning kategoriyalariga muvofiq ravishda Toponomikaning quyidagi boʻlimlari ajratiladi: gidronimika — suv havzalari: daryo, kanal, soy, ariq, buloq, koʻl kabilarining nomlarini oʻrganuvchi soha; oykonimika — aholi yashash maskanlari va ularning qismlari: qishloq, mahalla, guzar, koʻcha, ovul, qoʻrgʻon nomlarini oʻrganuvchi soha; oronimika — yer yuzasining relyef shakllari: tof, choʻqqi, qoya, qir, tepa,



qiya nomlarini tekshiradigan soha; urbanonimika — shahar ichidagi har qanday ob'yektlar nomlarini o'rganuvchi soha; kosmonimika — Yerdan tashqaridagi ob'yektlar (osmon jismlari) nomlarini o'rganuvchi soha va boshqa

So'nggi 40—45-yil ichida Toponomikaning nazariy va amaliy asoslari ishlab chiqildi, Toponomika sohasida bir qancha tadqiqotlar maydonga keldi. Bunda rus olimlaridan V. A. Nikonov, A. V. Superanskaya, A. P. Dulzon, E. M. Murzayev, V. N. Toporov, O. N. Trubachev, o'zbek nomshunoslaridan H. Hasanov, E. Begmatov, T. Nafasov, S. Qorayev, 3. Do'simov va boshqalarning xizmatlari katta bo'ldi. O'zbekiston toponimiyasi 20-asrning 60-yillaridan ilmiy asosda o'rganila boshlandi: Qashqadaryo, Xorazm, Toshkent, Surxondaryo, Samarqand, Margilon, Qo'qon, Buxoro, Boysun, Mirzacho'l, Shahrisabz, Nurota hududlaridagi joy nomlari tadqiq etildi, Toponomikaga oid bir necha lug'atlar, risola va monografiyalar nashr etildi.

Har bir aholi yashash hududining tabiiy geografiyasi, bu yerda yashovchi aholining til xususiyatlari, kundalik mashg'uloti bilan uyg'un holda paydo bo'ladigan joy nomi tarixdan shakllangan. Toponimlar ijtimoiy jarayon sifatida tarixiy taraqqiyotning muhim bir bosqichi sifatida avloddan avlodga o'tgan. Shu bois yurtimiz o'tmishida biror joyga nom berish hech qachon oliy hukmdorning farmon yoki qarori bilan emas, balki xalq xohish-irodasi, azaliy qadriyati tufayli amalga oshirilgan.

Chunonchi, O'zbekiston tarixida turli millat va elatlar yashab o'tgani bois toponimlarida turkiy, forsiy, so'g'diy, arabiy tillar fonetikasi aks etgan. Aksar aholisi turkiy tilli bo'lgan hududlarda ham forsiy komponentli joy nomlari uchrashi aholining boshqa tillar va uning vakillariga hurmat bilan qaraganidan, uni e'tirof etib, bag'rikenglik bilan qaraganidan dalolatdir.

Jahon tajribasidan ko'rsak, Rossiya Federatsiyasining Osiyo qismidagi ko'plab joy nomlari turk-mo'g'ul tillari fonetikasini ifodalaydi. Tyumen shahri nomi mo'g'ulcha "tuman", "o'n ming" so'zlaridan olingan. Mo'g'ullar bu atamani 10 ming lashkar taqdim eta oladigan hududga nisbatan qo'llashgan. Astraxan, Ural, Barnaul, Kurgan, Altay, Tura, Bikin, Xanka va yana boshqa toponimlar garchi ruscha bo'lmasa ham, rossiyaliklar ulardan voz kechgani yoki o'zgartirgani yo'q va bu toponimlar asrlar osha o'z tarixiy ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Mamlakatimizda esa ming afsuski, tarixan toponimik joy nomlari mustabid tuzum davrida bir necha marotaba o'zgartirilgan. Sobiq kommunistik tuzum mafkurasidan kelib chiqqan holda xalqning tarixini, madaniyatini, ma'naviyatini, tarixiy xotirasini o'chirib tashlashga harakat qilingani toponimik joy nomlarida ham o'z aksini topgan. Xalqning o'zligiga mutlaqo yot bo'lgan joy nomlari, jumladan, "sovetskaya", "komsomolskaya", "krasnoarmeyskaya", "fizkulturnaya", "kommunarnaya", "oxotnichya" terminlari kirib kelgan va ancha muddat "yashagan".

Joy nomi – u yaxshimi, yomonmi, tarix, til va qadriyat, yozma yoki og'zaki nutq va madaniy merosdir. Shu boisdan mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridan joylarda ish boshlagan toponimik obyektlarga nom berish komissiyalari shaharlar, mahalla va ko'chalar, qishloqlar tarixiy nomlarini qayta tiklash bo'yicha qator ishlarni amalga oshirishga kirishdi. Bu borada muayyan yutuqlarga erishildi ham. Jumladan, Buxoro



viloyatining tarixiy joy nomlari, toponimlari, ayni kundagi barcha joy nomlari O‘zbekiston Milliy arxivi fondida saqlanayotgan Buxoro amirligi devonxonasi tarixiy hujjatlarida uchraydi. Bu fond Buxoro qushbegisi devonxonasi hujjatlaridan iborat bo‘lib, ularning xronologik chegarasi XVI — XX asrlar boshlarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

Bu borada bir nechta tarixiy manba-adabiyotlar mavjud bo‘lib, joy nomlari 1926-yilda eski o‘zbek yozuvida chop etilgan va 2017-yilda A.Axmedov tomonidan kirill alifbosiga tabdil qilingan “Xalq turadigan joylarning ro‘yxati” kitobida batafsil bayon etilgan. Ana shu tarixiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda “Raboti Qalmoq”, “Pat-put”, “Tutun-Burun”, “Yapaloq”, “Yakka A‘lam”, “Chalma gadoy” nomlarini o‘zgartirish maqsadga muvofiq ham emas.

Shu o‘rinda birgina “Raboti qalmoq” atamasi kelib chiqishiga to‘xtalib o‘tsak, “rabot” so‘zi mamlakatimizning barcha hududlarida uchraydi va “qo‘rg‘on”, “karvonsaroy”, “mehmonxona” “qishloq” degan ma‘nolarni bildiradi. “Qalmoq” esa elat, qavm nomi. Ya‘ni qalmoqlarning bir qismi mo‘g‘ullar istilosi davrida Markaziy Osiyoga kelib, mahalliy aholi tarkibiga singib ketgan. “Raboti qalmoq” atamasini joy va qabila nomini o‘zida mujassam etgan va ikki komponentdan iborat topoetnonim deb hisoblash mumkin.

Respublikamizda 2011-yil “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinguniga qadar bu sohadagi munosabatlar 1996-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida ma‘muriy-hududiy tuzilish, toponimik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalarini hal etish tartibi to‘g‘risida”gi Qonun asosida tartibga solingan. Bunda ma‘muriy-hududiy bo‘linish, aholi punktlarining nomlari borasida bo‘layotgan o‘zgarishlar umumdavlat darajasida hisobga olinmagan. Respublikadagi barcha aholi punktlari nomlarining rasmiy ro‘yxati mavjud bo‘lmaganligi sababli, ularni qayta nomlash va hisobga olish yo‘lga qo‘yilmagan edi.

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi geografik obyektlar nomlarini qo‘llashning asosiy prinsiplarini yuridik jihatdan mustahkamladi, geografik obyektlarning nomlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni takomillashtirishga qaratilgan yagona davlat siyosati, geografik obyektlarning nomlarini belgilash va normallashtirishga yagona ilmiy-uslubiy yondashuv, geografik obyektlarning nomlarini O‘zbekiston Respublikasi xalqlari tarixiy va madaniy merosining tarkibiy qismi sifatida to‘g‘ri qo‘llash hamda saqlash imkonini berdi.

Sohada olib borilayotgan faoliyatni tubdan takomillashtirish maqsadida jumladan, Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining shu yil 20 yanvardagi “Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Mazkur huquqiy-me‘yoriy hujjatlar talabidan kelib chiqib, Buxoro viloyati hokimining 75-f-sonli farmoyishi hamda joriy yil 25-martida “Geografik obyektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi viloyat komissiyasining yangilangan tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Davlat tilini rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga so‘zsiz rioya etilishini ta‘minlash bo‘yicha jamoatchilik nazoratining samarali shakllarini joriy etish,



davlat tili sofligini saqlash va uni boyitish, aholining nutq madaniyatini oshirish barobarida jumladan, Buxoro viloyati hokimligi huzurida Geografik obyektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi viloyat komissiyasi faoliyatiga ko'maklashuvchi "Tarixchi olimlar ekspert guruhi" tarkibi tasdiqlandi.

"Tilshunos olimlar guruhi" va "Tarixchi olimlar ekspert guruhi" o'z faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun Buxoro shahar, Bahouddin Naqshband ko'chasi, 7-uyda joylashgan "Baxt uyi" binosida yetarli shart-sharoit yaratiladigan bo'ldi. Olim-tadqiqotchilardan iborat ekspertlar guruhi viloyat hokimligi bilan bevosita hamkorlikda shahar va tumanlarda toponimik obyektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtirish bilan birgalikda davlat organlari va xo'jalik birlashmalari muassisligida ta'sis etilgan ommaviy axborot vositalari, ularning Internet jahon axborot tarmog'idagi veb-saytlari hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarini muntazam kuzatib borish, davlat tili qoidalarining buzilishi holatlari aniqlanganda, ularni bartaraf etish choralari ko'rish vakolatiga ham egadir.

O'zbekiston hududida turkiy va eroniy tillar bilan aloqada bo'lgan hududlar o'zining geografik joylashuvi tufayli O'rta Osiyo va Qozog'istonning boshqa mintaqalari toponimiyasining ko'pgina xususiyatlari bilan ajralib turadi. V. A. Juchkevichning fikricha, mamlakat hududida ikkita toponimik hudud kesishadi: 1) mahalliy murakkab tabaqalashtirilgan geografik terminologiya asosida toponimika shakllangan hudud va 2) gidronimiya bilan unchalik bog'liq bo'lmagan qadimiy toponimikaga ega bo'lgan hudud[7]. O'rta Osiyo toponimiyasi dunyoning boshqa mintaqalaridan farqli o'laroq, daryolar o'z nomlarini shaharlardan olgan, boshqacha emas[7]. O'zbekiston hududida O'rta Osiyoning ko'plab qadimiy madaniyat markazlari joylashgan bo'lib, ko'pgina o'zbek shaharlari ming yildan ortiq tarixga ega, bu esa ko'plab toponimlarning birlamchi manbalarini aniqlashni qiyinlashtiradi. Juchkevichning fikricha, O'zbekiston toponimiyasida 4 guruh nomlarni ajratib ko'rsatish mumkin, ammo ular asl toponimik qatlamlar xususiyatiga ega emas va mamlakat toponimiyasining butun xilma-xilligini qamrab olmaydi:

- qadimgi (aralash kelib chiqishi)
- eronlik
- turkiy
- Rus[7].

Eng qadimiylariga Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Termiz, Farg'ona va hokazo toponimlar kiradi. Shu bilan birga, ko'pgina qadimiy toponimlar haqida ularning lingvistik mansubligini aniqlash imkonini beradigan aniq baho berish hali ham mumkin emas. Masalan, Buxoro, Samarqand, Amul, Xiva va boshqalar[8]).

Ilk o'rta asrlarda So'g'ddagi turkiy aholi 7-8 asrlarda turkiy nomlarga ega bo'lgan aholi punktlarining nomlari bilan tasdiqlanadi[9].

Eron toponimlarining katta qismi Qashqadaryo viloyati hududida to'plangan. Eron toponimiyasiga Dugob, Obikandi, Tuzab, Kitob va boshqalar misol bo'la oladi. Farg'ona viloyatida eroniy toponimlar turkiy toponimlar bilan qorishgan holda uchraydi. Turkiy toponimlardan Saryksu, Qorovultepa, Toshtepa, Oqqo'rg'on, Oltinko'l, Urmanbek,



Kattaqo'rg'on, Katta-Qishloq va boshqalarni qayd etish mumkin. Ts. -D. Nominxonov, O'zbekiston toponimiyasida mo'g'ul tilidan olingan qatlam ham mavjud: masalan, Samarqand-Buxoro-Qarshi uchburchagida Nominxonov mo'g'ul tilidan 136 ta toponimni sanab o'tgan[7].

Rus toponimlari O'zbekistonda toponimikaning eng yosh qatlamini tashkil qiladi. Ba'zi nomlar Rossiya imperiyasi davrida berilgan, asosiy qismi - Sovet davrida, bu toponimlarning ko'pchiligi o'sha davrga xos "mafkuraviy" belgilarga ega edi. Mustaqillik davrida rus tilidagi toponimlarning salmoqli qismi: Gorchakovo (hozirgi - Yangi Marg'ilon), Ursatievskaya (hozirgi - Xovost), Kuropatkin (hozirgi Lalmikor), Komsomolsk (hozirgi Malikrabort) va boshqalar nomini o'zgartirdi[7].

O'zbekiston toponimiyasidagi toponimik asoslarning boshqa mamlakatlardagi kabi guruhlarini ajratish mumkin.

- I guruh toponimlari (hududning tabiiy sharoiti bilan bog'liq holda yuzaga kelgan): Qorabo'ir, Uzunbuloq, Toshquduq, Oqtepa, Qoraqodir ;

- II guruh toponimlari (ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar asosida vujudga kelgan) - mahalliy xalqlar etnonimlari asosida vujudga kelgan Qoraqalpog'iston toponimlariga xos: Nukus, Chimboy, Qo'ng'iroq, Xodjeyli, Qipchoq, Mang'it ;

- III guruh toponimlari (ob'ektning individual belgilarini tavsiflovchi): Katta-Qishloq, Olti-Ovul, Ko'l-Qishloq, Yangi-Qishloq, O'rta-Ovul ;

- IV guruh toponimlari (otonim toponimlari, kishilarning ismlari va familiyalari haqidagi ma'lumotlar): Xo'ja-Muhammad, Qalanjara va boshqalar

- Toponimikaning rivojlanish tarixidan, antik dunyo geograflari asarlarida joy nomlari. Ilk

o'rta asrdagi olimlar asarlarida toponimik ma'lumotlar. Toponimikaning hozirgi holati. Mahmud

Koshg'ariy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Zahiriddin Muhammad Bobur, E.M. Murzaev,

H.H.Hasanov, S.Qoraev va boshqalarning toponimik ishlari. Yirik sharqshunoslar asarlarida joy nomlari.

O'zbekistonda toponimikaning hozirgi ahvoli, toponimik tadqiqotlar. Toponimlarni geografik jihatdan tadqiq etilishi

Toponimika geografik atamashunoslik - terminshunoslik va lug'atshunoslik sohasidagi tadqiqot va tasavvurlarning shakllanishi Yer haqidagi fizika, astronomiya, tarix va aniq falsafa fanlarning taraqqiyot tarixi bilan bevosita bog'liq.

Jamiyat taraqqiyot tarixining antik davri (eramizdan oldingi 476 va melodning 446 yillari oralig'i) hozirgi ko'pchilik fanlarning asoslari yaratilgan davr hisoblanadi.

Yuqorida takidlanganidek Yer haqidagi ilmlar , xususan geografiya fanlari, uning asosiy iboralari qoida va fanning muayyan tushunchalarini ifodalaydigan so'z va so'z birikmalari ayni shu antik davrda paydo bo'lgan. Toponimikaga doir tushuncha va ma'lumotlar qadimgi yunon - Rim tarixchi va faylasuf olimlarning ishlarida uchraydi. Ma'lumki —Geografiya — atamasi birinchi marta eramizdan oldingi 276-194 yillarda



yashab ijod etgan yunon olimi Erotosfin tomonidan fanga olib kirgan. Hozirgi Liviya davlati hududi doirasida mavjud bo'lgan Keruna shahrida tug'ulib, bugunki Misrning hozir ham eng katta shahri Aleksandriyadagi o'sha qadimgi davrning eng boy kutubxonasi boshlig'i bo'lib ishlagan Eratosfenning —geografik yozishmalar kitobida geografiya atamasi bilan birga talay geografik terminlarlar - meridian paralel kabi so'zlar ishlatilgan. Shuni ham takidlash lozimki , hali geografiya so'zi paydo bo'lishdan oldin eramizdan oldingi VI-V asrlarda Melyat shahrida yashagan.

Rekatiy shahrida yashagan O'rta yer dengizi va Qora dengiz va boshqa o'sha davr yunonlarning qadami yetgan o'lkalar geografik tasvirini tuzib, ko'plab toponimlar ishlatgan. Tarix faning atamasi Gerodot (Rim respublikasining meloddan oldingi 146-43 yillarda yashagan hukumdori setseronning

Gerodotga bergan bahosi) hozirgi o'rta dengiz, Qora dengiz Kaspiy dengizi va ularga tutash joylardagi geografik ob'ektlar toponimlar va o'lkalarning xalqlari haqida ma'lumot bergan.

Shu bilan birga hozirgi geografiya fanida yetakchi tushunchalar sifatida ishlatiladigan iqlim ,iqlim mintaqasi, Arktika doirasi, qutb doirasi, tropik kenglik shunibng Oyukumena , Sfagrida Gidrosfera, atmosfera, Metiorologiya va boshqa ko'plab tushuncha va iboralar antik davrda ishlatilgan.O'rta dengiza va unga tutash joylardagi geografik ob'ektlarning atoqli otlar Liviya,

Atlantida, Tavrida, Pantiya , Semferopol, Odessa, Kalxeda, Reoni, Don, Oks va boshqa toponimlar qadimgi antik davr va yunon - Rim tarixi davrida paydo bo'lgan. O'rta Osiyoning Yaksart Trajonsaniya kabi toponimlari yunon va yevropa kitoblarida qayd etilgan, lekin bu lomlar asli mahalliy xalq tomonidan qo'yilgan nomlardir. Abu - Rayhon Beruniy Yaksart - Sirdaryoni Hasart deb yozgan. Amudaryodan sharqdagi hududlar yevropa o'rta asr kitoblarida

Tronsaksiana , sharq tillaridagi kitoblarda Movorounnaxr (daryo orqasi) deb yuritilgan bo'lsada , mahalliy tilda Vorozjayhun va Vorozrud (daryo orqasi) nomlari bilan ma'lum edi.

Buni buyuk alloma Abu-Abdulloh Rudakiy yozib qoldirgan ma'lumotlardan ham ko'rish mumkin.

Gar bilmasang pahlaviy til,

Movorounnaxr aslida Varedrud bil

Deb takidlab o'tgan. (Rudakiy devon 1100 bet)

Toponimika fani alohida ilm sifatida keyingi XX asrda shakillangan bo'lsada

tilshunoslik, adabiyot, tarix va ayniqsa geografiya fanlarining rivojlanishi bilan nomlar paydo bo'lishi ma/nosi haqidagi masalalar o'rta asrlarda ijod qilgan olimlarning ishlarida etiborli jihat sifatida qaralgan. Chunki ilm bilan shug'ullangan kishilarning ijodlarida bayon etiladigan voqiyliklar aniq bir joy, hudud yoki suv akvatoriyasi bilan bog'liq bo'ladi. Bu hudud yoki geografik nomi bo'lib, bu nomning ma'nosi qaysi xalq tilidan olingani qachondan boshlab paydo bo'lgani hamisha qiziqarli bo'lgan. Eng oldingi paydo bo'lgan Osiyo, Yevropa, Liviya (Afrika) , Atlantika kabi makrotoponimlar buning isbitidir. Hozirgi Effrat va Dajla daryolari havzasida yashagan oskriya (finikiya)liklar o'zlari istiqomat



qiluvchi yerlarning quyosh chiqishi tomonini Osiyo (Asu) kun botish tomonini Yevropa (Yerib) Afrika nomi melodningt boshida yashagan rimlik geogrf Pomponiy mela uchunchi qit'aning nomini Afrika deb rasmiylashtirgan. Undan oldingi davrlarda yunon olimlari Liviya deb O'rta dengiz janubida Yerlarni atagan. Eramizdan oldingi uchunchi asrda Liviya paydo bo'lgan.

Keyinchalik Rimliklar Karfogan (hozirgi Tunis doirasini Afrika deb atagan)

Mashhur rus sayohatchisi va geografiya fani tashkilotchilardan biri P.P.Simyanov -

Tyanshanskiyning o'g'li Viniamin Petrovich Semyanov toponimika fani uchun Tyanshanskiy rus toponimika faniga juda ulkan hissa qo'shagn olim. Rossiyada statestika boshqarmasi boshlig'i vazifasida , Rossiyada 1897 yilda birinchi aholi ro'hatini o'tkazishda faol qatnashgan. 1899 yildan boshlab chiqa boshlagan ko'p jildli —Rossiya Poln'e opesanie nashigo otechestva - Rossiya. Vatanning to'liq tarifll kitoblarga muharrirlik qilish jarayonida toponimika masalalarida alohida etibor berilgan. Olimning toponimika sohasidagi ishlarini uchta yo'nalishda ko'rish mumkin. 1. Toponimika va kartografiya, 2. Toponimika va tarixiy geografiya 3 Toponimikaning hudud geografik sharoiti bilan bog'liqligi. Rus geografiya jamiyatida xaritalarda nomlarni transkripsiya kichik komissiyasiga boshchilik qilishda ruscha nomlarni lotin alfavetida berish tizimini ishlab chiqadi. Yu.M.Shokalskiy - okeonolog, tilshunos akademik A.A.Shohmatov sharqshunos akademiklar K.G.Zaliman va V.V.Bartol'dlar ishtirok etganlar. Geografiya jamiyatining Moskva va filyalida toponimika komissiyasi butun mamlakat bo'yicha toponimik tatqiqotlarga yagona prinsp asosida boshchilik qilgan.

XX asrning 60 yillarida —Narodiy Azii i Afrikiy ll , —Toponimiya Vostana ll jurnal va yirik nashrlar chiqarildi. 1966-yilda —Voprosi geoghrafi ll nashrning 70-soni —geografik nomlarni o'rganishll (—Misl ll Moskva 1966) toponimika sohasida olib borilayotgan ishlarning oraliq yakuni nashr etildi. Rossiya va sobiq ittifoqda toponimika va geografik atamashunoslik sohasida ko'plab nomzodlik va doktorlik dsertatsiyalar yozildi va yoqlandi.

Monografiyalar , lug'atlar , o'quv qo'llanmalar nashr etildi. Bu sohada A.P. Duyazon ,

E.M.Lurzayev, V.A.Nikonov, A.I.Popov, S.M.Paspelov, A.V.Superanskaya, V.N.Poporov, O.N.Trubachev, va boshqa ishlari salmoqlidir. Akademik V.A.Nikolayevning toponimikani o'rganishga undovchi ilmiy metodik ishlari E.M.Murzayevning Markaziy va O'rta Osiyo toponimikani ommalashtirishga qaratilgan ishlari diqqatga loyiqdir. —Kratkiy toponimicheskiy slovar (Moskva 1966 y) nomli V.A.Nikonov lug'ati fonni rivojlantirishga alohida ahamiyat kasb etadi. E.M.Murzayevning —Ocherki toponimil (Moskva 1974-yil) —Slovar mistnix geograficheskii terminovll (M 1959) —Toponimika populyarnoyal (1968) kitoblari fan rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Abu Abduloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf Al-Xorazmiy tug'ulib o'sgan 975-991 yillar Nishopirda yashab ijod etgan — Mofotix Al-Ulum — (—Ilmlar kalitll) nomli ikki kitobdan iborat asari bilan mashhur olimdir. Asar ikkinchi qismining oltinchi bobi matemetik va astranomik geografiyaga bag'ishlangan bu bobda geografiyaga doir atamalarning to'la izohi beriladi. Bu bobda Xuroson va Muvorounnaxrga doir ma'lmotlar talaygina. Shharlarning kengligi (arzi) uzunligi (to'li) , g'arb bilan chekkasi yo'qligi chunki astranomiyada ma'lum bo'lishicha ekvatorning har bir nuqtasi bir joyga nisbatan sharqiy ,



ikkinchi joyga nisbatan g'arbiydir. Yerning ma'mura , —obodll qismi ekvatoridan shimolda joylashgan. Farg'ona, Xo'jan, Qashg'ar, Shom, iloh, Usrushana , Samarqand, Buxoro, Shibirg'on kabi nomlar arab tilida yozilgan bu asarda geografik nomlar sifatida tariflangan. Fanning faxri umumbashariy ilm-fanga katta hissa qo'shagn Abu Rayhon Beruniy 973 yili 4-sentyabrda Xorazmda Amudaryoning o'ng sohilidagi Kat shahri chekkasida tug'ulgan . 1048 yilda G'aznada vafot etgan. Beruniy turli fanlarga doir ulkan merosida geografiyaga doir ilmiy talqinlar ancha yetakchi o'rin tutadi. H.Hasanovning ta'kidlashicha , geografik bilimlar yoritilgan asarlar soni sakkista.

Bular —Osari Boqiyal —Geodeziyal —Hindistonll —At- Tafhimll (Astronomiya ilmidan boshlang'ich malumotlar) —Qonuniy Mas'udiyll

—Mineralogiyal —Kartografiyal va —Saydanal (dorivor o'simliklar haqidagi kitob)

olimlarning ma'lumotiga Beruniyning 170 dan oshiq nomda asarlari bo'lib, —Xorazm tarixi ll

—Iqlimlar taqsimotil nomli yirik asarlari bizgacha yetib kelmagan. Beruniy ijodida Yer haqidagi bilimlarning barcha soha yo'nalishlariga doir nazariy masalalar xususida fikr yuritilgan. Uning ijodiga O'rta asr olimlarining deyarli hammasi murojot qilib, faoliyat ko'rsatganlar. O'sha davrda ma'lum bo'lgan Atlantika okeani qirg'oqlari Tinch va Hind okeani, yettinchi iqlim mamlakatlari - shimoliy o'lkalar ko'llar va dengizlar shaharlar borinki hamma turdagi atoqli geografik nomla izohi uning asarlarida tasvirlangan, chunonchi, Jurjon (Kaspiy) dengizi bu haqiqatda Hazor dengizidir. Ularning vayron bo'lgan mamlakatlari shimoliy Etil (Volga) daryosining quyadigan joyiga yaqin.

U yerda shimoliy tomonda G'oziya yeriga yopishgan. Sharqiy tomonda Jurjon yerida Obaskun degan bondor borki , dengiz ham Obaskun nomi bilan ma'lumdir. So'ngra tobaristonga daylam yeriga Sharvon va Bob-al-Abvobga, tutash .. uning g'arbida u bilan Buntus (Qora dengiz- Pontiya dengizi) o'rtasida alon va sarir toifalari, ularning mamlakatlarga va qit'alari joylashgan. U (Xazor dengizi) o'zidan boshqa dengizlarga tutashmasdan Xazor yeriga qaytadi. Keyin Etil daryosining quyilish yonida Xazor viloyati tomon yoyilgan, so'ng G'uzlor (Turkmaniston) viloyatidan o'tib, yana Obaskunga qaytib keladi.

Dengiz qirg'oqlaridagi viloyatlar nomi bilan yuritiladi. Ammo bizga Xazor nomi bilan ma'lum qadimiy xalqlarda Jurjoniya nomi bilan ma'lumdir, nainki Ptolomiy uni Irqoniya (Girkoniya) dengizi deb atagan. Bu dengiz boshqa dengiz bilan qo'shilmaydi. Mana Beruniyning —qonuniy mas'udiyll —At-Tafhimll asarlarida berilgan Kaspiy dengizi - toponimining geografik izohati.

Geografik nomlar bilan bog'liq beruniy asarlarida meteorologiya (ob-havo) iqlimshunoslik oid ilmiy atamalar izohlangan. Oxirgi sovuq haqida shunday deydi. —Odamlar shunga hayron bo'lib, ajablanmasinlarki (qish) oxiridagi sovuq qattiq bo'ladi, ketish oldidan ancha zo'rayadi, bu bu hodisa issiqlikga ham hosdirll Olim kundalik ob-havoga baho berganda mana bunday izohlarni ishlatgan.

Qish havosi, qish shiddatli havosi, turg'un havo, sovuq havo, sovuq shimoliy shamol,o'zgaruvchan shamol daydi shamol. Ozgina geografik mulohaza qilsak, hozirgi iqlimshunoslikda bu so'zlar o'rniga o'rtacha havo Atktika havosi seklon, antiseklonlar, havo



massasi, havo oqimi degan tushunchalar ekanligini bilib olamiz. Beruniy asarlarida Binkat, Shosh shaharlaridan biri, turkiycha Toshkent, bu yunon mualliflarida Burj Al-Xurja qal'asidir. Demak —Toshkentl toponim - turkiy Toshkent, forscha Choch, Binkay, arabcha Shosh bo'lib, barchasining ma'nosi turkiycha Tosh shahar nomining tarjima va o'sha tilga mos talaffuz etilishidir.

Beruniy Sharhsabz shahrini kesh shahri forslar Ma'jomat deb yuritgan deb xabar beradi. Sirdaryo etaklaridagi Yangikent (hozirgi G'azalkent shahri ro'barasida, daryoning chap sohilidagi xarobalar) turli xalqlarda turlicha yuritilgan.

Mahalliy turkiylar Yangikent- Janikent deb yuritgan nomni arablar —Qariyat al-Xodisal (Qariyat - qishloq, hodisa - yangi) va Madinat al-jadida (Madina shahar, jadida yangi) fors tojikcha Doh Nov deb yuritgani haqidagi aniq misolar orqali izohlagan.

Beruniy asarlarida Sirdaryoning eng qadimgi nomi Xasart daryosi bo'lgan.

Meloddan avvalgi davrlarda yunonlar Yaksart deb yozganligi haqida ma'lumotlar bor.

Beruniy asarlarida hozirgi geografik xaritalarida o'zgartirilib yoziladigan yoki butunlay boshqa nom bilan ataladigan toponimlar juda ko'p. Masalan fam al-Asad – sher og'zi - dahani sher deb yuritilgan joyni hozir Donisher deb, Zaim va Omuyya – karki va Chorjev shaharlari , Mazdubast - Amudaryodan Sariqqamishga oqqan daryo va boshqalar. Bunday toponimik malumotlar sharq tarixiy geografiyasini o'rganishda eng ishonchli manbalar ekanligi ko'rsatadi. Beruniy o'zidan 800 yillar oldin o'tgan Ptolomiyning Amudaryo haqidagi yozganlarini keltirib, Omuyya shahridan yuqorida Balx daryosiga quyilib, keyin Bolqon shahri yaqinida Xozor dengiziga quyilgan. Xozor esa G'uz yerlarining chekkalaridan burilib ketdi. Fam al-Asad degan joyda suv to'planib, daryo suvining bir qismi Xorazm bilan Jurjon orasida joylashgan cho'ldagi mazdubast deb atalgan daryo o'zanidan Sariqqamishga oqqanligini xabar beradi. Demak , ulug' allomalarning asarlarida jamiyat va tabiat tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar mavjud bo'lib, allomaning geografiyaga doir ilmiy merosi tabiiy muhitning ritmik taraqqiy etish qonuning aniq bir hududga tadbiiq etish imkonini beradi.

O'rta Osiyo va Sharq lug'atshunoslingining eng katta yutug'i M.Qoshg'ariyning

—Devoni lug'tit - Turkli nomli shoh asar hisoblanishi shubhasiz. Ota bobolari issiqko'l

bo'yidagi Borsg'on shahridan bo'lgan xizmat taqozosi Qashg'arga borib qolganlar. Mahmud o'sha davr hukmronlarining yirik markaz shahari Qashg'arda diniy bilimlar bilan birga astronomiya geografiya matematika va boshqa dunyoviy bilimlarga ham qiziqqan. Buxoro va Bog'dodda o'z bilimlarini mukammallashtirish uchun davom ettirgan. Turk tillarining qiyosiy gramatikasini talqin etish nmaqsadida, Mo'g'ilistondan Qora dengiz bo'ylariga keng hududlarda yashagan turkiy qabilalar orasida yurib, ma'lumotlar to'playdi. Bu daliliy malumotlar asosida 1074 yilda —Devoni lug'atit Turkli asarini yozib, tugatib, 1077 yilda xalifa

Muqtadirga tadbiiq etadi. M.. Qoshg'ariyning umumiy turkiy tilarni o'rganish, turkiy til shevalarining qiyosiy gramatikasini tuzish folklor va etnografiya sohasidagi xizmatlari nihoyat ulug'dir. Shu bilan birga turli fanlarning atamashunosligini yaratish va geografiya faniga ham ulkan hissa qo'shgan. Qoshg'ariyning geografik merosi asosan besh yo'nalishda o'z mazmunini topadi. (H.Hasanov 1981)



1.Devonda berilgan tabiiy geografik atamalar va ularning izohi;

2.Devoni lugʻit Turkga ilova qilingan dunyo xaritasi;

3.Devonda uchraydigan joy nomlari va ularning izohi;

4.Oʻrta Osiyoda ayrim qabilalarning joylashishi haqida —aholi geografiyasill ga oid maʼlumotlar

5.—Devon || dagi astronomik maʼlumotlar taqvimlar tizimi – muchalar va ularning tarixi.

M.Qoshgʻariyning geografik merosi birinchi galda geografik atamalar tahlilidir. Tabiat va tabiiy hodisa, tabiiy jarayon hususan choʻl, togʻ, iqlim yer, suv, hayvon, oʻsimlik va boshqalarg doir iboralar izohiga olim alohida oʻrin bergan. Qoshgʻariy ishlatgan ariq, buz,

(muz), bulut, yomgʻir, yoz, kechik , kent, kuz, kun, koʻl, oy, ort,(davon) oqim va oqindi, sel va selindi, suv va suvloq togʻ tuz, (tekis) tuman ungur chaqmoq, yayloq, yashin, qayir, qoq, qir, qish va qishroq, qor, qoʻltiq, qum, va boshqa soʻz iboralarni ishlatgan, ularning izohini bergan. Olimlarning yozishicha, bu soʻz va iboralarning baʼzilari VII asrga mansub Oʻrxun bitiklarda, Qultegin yodgorliklarida uchraydi. —Devon|| da bu soʻzlarning ishlatilishi va ularning koʻpchiligi hozirda ham istemolda ekanligini hozirgi oʻzbek geografik atamashunosligining mustahkam qadimiy zaminga ega boʻlishini koʻrsatadi. Yer va tuproqqa doir soʻzlarni izohiga kengroq oʻrin berilgan. Chalang yer – qora yer, bout-shoʻr yer Sagʻizlik - sogʻ tuproqli yaxshi yer, sagʻiz tuproq – toza tuproq, sogʻ tuproq, toza yer- oʻsimligi kam yer, oriq, hosillar. Qayir yer – yumshoq tuproqli yer, tekis yer, qumloq yer; takidlash lozimki, qayir hozirgi geografiya fanlarida koʻp ishlatiladigan daryo vaqtinch suv bosadigan qumloq-toshloq qismiga aytiladi

Boldir togʻ – togʻ burun, togʻning tekislik ichiga kirib ketgan tarmogʻi. Hozirgi toponimlarda uchraydigan boldir soʻzini osongina izohlash mumkin. Muzrabot tumanidagi

Boldir temir yoʻli bekati haqiqatdan ham Koʻhitang tarmoqlarining bir uchu boʻlganligi uchun shunday atalgan. Ort - orqa, boʻyin , gordon, togʻ devoni, badalort, Koʻkort, Qizilort, Muzort, Oqort, Turugʻoert kabi oʻrta osiyodagi davonlar nomi nima uchun shunday nomlanganligini bilib olsa boʻladi. Qurugʻ - amirlari boqiladigan koʻkatzor, atrofi qurshalgan joy.

Bu soʻz tojik tiliga ham oʻtgan. Qoʻriqning hozirgi manosi - qoʻriqlanadigan dahlsiz tabiat kompleksi.

Qoʻriqxon, zapovednik soʻzlarining oʻzagi, qoʻrigʻ hasrdayoq hozirgi manosiga oʻxshash mazmunda ishlatilgan.

Ob-havoga - meteorologiyaga oid soʻzlar atmosfera hodisasi, osmon hodisasini ifodalash ushbu qimmatli asarda oʻz ifodasini topgan. Masalan talgʻogʻ har tarafdin esgan qattiq izgʻirin shamol, qarogʻu – qirov, bulut sugoldi – bulut tarqaldi, erkin yomgʻir – bir necha kun toʻxtamay yogʻadigan yomgʻir. Geografik nomlarning talqiniga asarda katta oʻrin berilgan –

Bolosugʻun Beklig, moʻgʻilcha Gʻubalik - goʻzal shahar, Barsgʻon yoki Basrxon - Issiqkoʻl boʻyidagi shahar, kishi nomidan olingan. Yaponiya Jafarqa Morka, Poloda, Chunonchi deb yozilgan M.Qoshgʻariy Beruniy asarlaridan foydalangan. H.Hasanov tadqiqotiga Devon da ishlatilgan 70 ta joy nomi Beruniy asarlaridan olingan. Shu bilan birga



Beruniy asarlarida tilga olinmagan Toshkentdan G'arbiy Xitoygacha masofada ko'pchilik joy nomlari ham berilgan. Shunday qilib, Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy va Hudud al-Olamning muallifi O'rta osiyo geografiya nomshunosligi va toponimiyasining asoschilaridirki, ulardagi ilmiy merosni chuqur o'rgangan geografiya tarix va tilshunoslik fanlarining hali bahstlab sahifalarini to'ldirishi shubhasiz. Toponima va umuman geografik meros sohasida Marv shahrida tug'ilgan Xivada yashab ijod etgan XI asr oxiri va XII asr boshida yashagan falaklarning taxsimi haqida idrokning nihoyasi asari bilan mashhur bo'lgan. Al-Xorazmiy muhim o'rin tutadi. U Jayhoniylardan foydalangan, Ptolomeyga ergashib, ma'ruzani paralel ravishda 39 zonachaga bo'lgan. Iqlim beshta zonachani II-VI iqlimlarning har biri ikkitadan zonachani VII iqlim bir yo'la 18 ta zonachani o'z ichiga olgan. Ekvatordan boshlab chizilgan bu zonachalar kunning uzun – qisqaligiga bir – biridan avvalo chorak soatdan, keyin yarim soatdan shimolroqdagilari bir soatdan farq qilgan eng shimoldagi zonachalarni bir oy yorug' tun, bo'ladigan yerlar, ikki oy yorug' tun bo'ladigan yerlar, uch oy, to'rt oy, besh oy va nihoyat olti oy kecha yu kunduzi yorug' bo'lib turadigan yerlar deb shimoliy qutbgacha belgilab chiqqan.

A.Mahmud ibn Umar az-Zamaqshariy (1074-1144) Xorazmning Zamaqshar

qishlog'ida tug'ulgan. U sarmahsul olim bo'lib, elliktacha turli sohaga doir asar yozgan.

Shulardan 25 tasi bizgacha salanib qolgan. Zamaqshariy asosan arab tilshunosligi sohasida juda ko'plab asarlar yozgan. O'z zamonasining yetuk arab tilshunos olimi bo'lib yetishgani holda —Vodiy va tog' ismlaril nomli arab tilidagi geografik asari ham bor. Asarni Arabiston yarim orolidagi shaharlar, qishloqlar, tog'lar, vodiylar, suvlar izohi berilgan. Baniyoli toponomik entsiklopediya deyish mumkin. Geografik nomlar alifbo tartibida belgilab nomlab manosi nomlarning atalishi bilan bog'liq rivoyatlar berilgan.

Asl vatani Xuroson bo'lgan mashhur olim Najib Bahroning XVIII asr boshida yozilgan

—jahonnomal asarida Beruniy , Tusiy, Xurdodbeh, Istohriy, Xusrav va boshqa olimlarning

asarlari jadval tariqasida belgilangan va izohotnoma tarzida tuzilgan asardir. Johannomada 600 tacha joy nomi belgilangan. Ular xaritada ko'rsatilgan Biyoboni Xuroson (janubiy Qoraqum) Biyoboni Xorazm (shimoliy Qoraqum) Turkiston , Termiz, Issiqko'l, Barsxon va boshqa joylar bilan bir qatorda Kalif Movoraunnaxr, Naqshob, Vahon kabi bizning yurtimiz nomlari ham o'z tasvirini topgan.

Faxriddin Banokatiy XIV asr boshida o'z ijodi bilan dong taratgan Sirdaryo o'ng qig'ogidagi Banokat Shohruxiya shahrida yashab ijod etgan olimdir. 1317 yilda ko'pincha

—Tarixi Bonokati l nomi bilan yuritiladigan tarix va geografiyagfa doir asar yozib, uni sulton Abu Saidga bag'ishlagan. Asar unga ilova qilingan, xaritasi xaritada ko'rsatilgan. Toponimlar jihatdan diqqatni o'ziga jalb etadiki o'sha davr geografik nomlarini o'rganishida muhim manba deyish mumkin.

Shunday qilib, IX-XIV asrni sharq tarixi va geografiyasida sharq fani gullab yashnagan.

Barcha ilmlar sohasining eng ommabopi bo'lgan geografiyada faqat tarixiy davr uchungina emas balki butun sharq ilm fan taraiyotida muhim ahamiyatli asarlar yozilgan.



Dunyoni tabiiy iqlimlar yuqori darajada rivojlanganligi bilan ahamiyatlidir. Markazlashgan kuchli davlatni tashkil etgan ilm fan me'moriy san'at va madaniyat yuksak darajada taraqqiy etgan Amur Temur avlodlari davrida (1360-1507) yillarda dunyoviy ilmlarning boshqalari qatori geografiya fani ham yuqori darajada rivojlangan edi. Amur Termurning tuzluklarida iqlimlar shaharlar tabiiy sharoitlar xususida ilmiy asoslangan tushunchalar bayon etilganki bular buyuk davlar arbobining geografiyani teran tasavvur etganligini ko'rsatadi. O'zining harbiy yurishlarida qo'llagan taktikasi muayyan hudud geografik sharoitini yaxshi bilganligi joy reliefi va boshqa tabiiy sharoit harbiy yurish va davlatni boshqarishida yetakchi ahamiyatga ega ekanligini hisobga olishning namunasi ekanligini bildiradi. Temuriyzodalarning ko'pchiligi davlat va harbiy yurish san'atini egallagan sarkarda adabiyotni yaxshi bilgan, ayrimlari yozgan g'azallardan devon tuzgan, shoir hukmdor bo'lish bilan birga , madaniyat fan va memorchilikning homiysi sifatida faoliyat ko'rsatganligi ma'lum. Shuning uchun temuriylar hukmronligi davrida umumbashariy madaniyat va fanda chuqur iz qoldirgan Ulug'bek, Ali Qushchi, Navoiy, A.Jomiy, A.Samarqandiy, Hofizi Abru, G'iyosiddin Naqqosh, Ali Yazdiy, ibn Arabshoh, Xondamir, Mahmud Davlatbek Samarqandiy Kamoliddin Behzod kabi mutafakkirlar etishib chiqqan.

Bu tarixiy siymolarning aksariyati ilm fanning boshqa sohalari qatorida geografiya fani sohasida ham muayyan iz qoldirganlar. Muhammad Tarag'ay

Ulug'bek astranomiya sohasida o'z zamonidan ancha ilgari ketgan. —Ziji Jadidiy

Kuragoniy II yulduzlar jadvali asaridan tashqari —To'rt ulus tarixi asari kun qirrali ijod sohibi bo'lgan olim sifatida tarixda o'z o'rniga ega. —To'rt ulus tarixi 1425 – yilda Mirzo Ulug'bekning ilmiy rahbarligi va shahsan ishtirokida yozib tugatilgan asarda Mo'g'uliston , O'rta Osiyo Eron Afg'oniston tarixiy geografiyasi Chingizxon avlodlari hukmronligi va shajarasi Xorazm davlatining Chingizxon tomonidan bosib olinish aniq hududlar va muayyan geografik nomlar orqali bayon etilgan. Masalan Chingizxonning o'tgan 1988-yili 860 yilligi yubileyi nishonlangan. Jaloliddin ibn Sulton Muhammad Xorazmshoh bilan Chingizxon o'rtasida urushlari tarixi orqali Kot, Qiyot, Hirot, G'azna, Nasaf , Voliyon, Bobiyon, Nimruz, Utror, Dashti Qipchoq, Sind, Jayhun va boshqa shunga o'xshash ko'pgina geografik nomlar tilga olingan, ayrimlarga geografik izoh ham berilgan.

Temuriylar davrining eng yirik olimlaridan Shahobiddin Abdulloh ibn Lutfulloh Al-

Xavofiy-Xofizi Abrudir. O'zining xizmat faoliyati Amur Temurning sayohatlaridan birida Munshiy-Kotiblik vazifasidan boshlangan, ko'p marta sayohatga chiqqan. Ko'p joylarni ko'rgan Hofizi Abru atoqli tarixchi geograf olimdir. —Yiroq safarlar asnosida shimoli – g'arbiy tomondan Movoraunnahr Turkiston, Dashti Qipchoq, Xuroson, iroq, Fors , Ozarboyjon, Eron,

Gurjiston, Armaniston diyorlari rus va shom yerlarining barchasini firot daryosi sohillarini

Hizor sohillarini sharqiy tomondan esa Qobulni , Multon O'ch va Hindistonning eng yirik shaharlari Dehlini gang daryosi qirg'oqlarigacha bir necha bor bordim II deb yozgan.

Hofizi Abru 1414- yilda Hirot hokimi Shohruhmirzoga Arab tilidagi —Yo'lar va mamlakatlar kitobil yoki ikkinchi nomi —iqlimlar surati nomli kitob taqdim etdilar.

Shohruh uni Hofizi Abruga fors tiliga tarjima etishni topshiradi. Olim bu kitobni



tarjima qilar ekan sharqdagi Mutarjimlik qoidasiga amal qilib, o'zining ko'rgan, bilganlarini va Xitoyga elchi sifatida borgan G'iyosiddin Naqqoshning xotiralarini, bir qism Amur Temur yurishlarini ham qo'shadi. Natijada yangi bir asar —Zubdot at - Tovorihl tarixlar qaymog'i vujudga kelgan. Asarda dashti Qipchoq, o'zbeklar diyori Movoraunnaxr shahar va viloyatlarining geografik tavsifi berilgan. Viloyatimizning yirik manzillari kesh vaQarshining tarifini shunday keltirgan. Kesh uni Sharhsabz ham deydilar. Eni uch farsang bo'yi uch forsang yaqinida tog' bor. U tog'da harsangtuz bor, tiniq ba'zan rangdor Keshning har xil mevalari ko'p, ko'pgina mevalar uning chegarasidan chiqariladi. Kesh Movaraunnaxrning issiq joyi. Naqshob, Kesh atrofida uni Nasaf ham deydilar. Hozir Qarshi nomi bilan mashhur.

Bu qadimiy shahar bo'lib, tekis yerda joylashgan. Undan tog'gacha ikki kunlik yo'l. Boshqa tarafdin to Jayhunga qadar cho'l. Kesh suvidan boshqa daryo yo'q. Podshohning qasrini turkiy tilda Qarshi deyilardi. —

Hofizi Abruning bu asarida boshqa nomlarning ham izohi berilgan. Bordog'iy Jayhun Qanoriyda, Termiz mavzeylariga tutash, Bo'rdog'uy yunoncha so'z bo'lib Iskandar zamonasida atalgan —Mehmonxona manosini bildiradi Panjob haqida shunday yozadi.

Xudlon va Vaxsh chegarasida beshta daryo qo'shilib bu mavzeyni Panjob deb ataydilar. Hozirgi Amudaryoning Vaxsh daryosigacha bo'lgan bo'lagi Panj daryosi nomini Hofizi Abru tomonidan shu tariqa to'g'ri izohlangan. Abdurazzoq Samarqandiy Shohruh saroida tarixchi olim va davlat arbobi, elchi, vazifalarida xizmat qilgan. —Ikki saodatli (yulduz)ning balqishi va ikki dengizning qo'shilishi nomli mashhur asarini bir qismi 1441-1442 yillarda

Hindistonga Xuroson elchisi sifatidagi sayyohlar tasurotini o'z ichiga oladi. Asar chinakkam tabiat hodisalari tasvir etilgan. Geografik tadqiqot bo'lib, unda Hindiston va uni o'rab turgan Hind okeani geografiyasi va tabiat sharoiti haqida mukammal ma'lumotlar keltirilgan.

Asarda Bodxez, Qoraqum va geografik ob'ektlarning toponimik izohi ham o'z tarifini topgan.—Bodxiz qirlari ko'klam chog'lari go'zal qizning jamolidan ham tozaroq, bahr oluvchi va ma'shuqaning vadasidan ham yoqimliroqdir deb yozadi. Hofizi Abru, A.Samarqandiy, Mirzo Ulug'bek Ali Qushchi kabi o'rta asrning yirik olimlari va ularning bashariyat uchun qimmatli asarlari Temuriylar hukmronligi davrida ilm fan rivoji uchun to'la shart sharoit yaratilgan degan ijod ahli doimo qo'llab quvvatlangan degan hulosa chiqarishga imkon beradi.

O'rta asr sharqning olimi, shoiri, tarixchisi, sarkardasi va Hindistonda 150 yildan ortiq hukmronlik qilgan Boburiylar saltanatining asoschisi bo'lgan. Bobur bor yo'g'i 49 yil umr kechirgan. Boburning hindistonliklar tomonidan hurmat bilan tilga olinishining sababi shuki u Hindistondagi fiodal tarqoqlikka barham berdi. Boshqa ellardan kelgan istelochilardan farqli ravishda hech narsani Hindistondan olib ketmadi. Aksincha bu elda Hozirda odamlarning hayratga solgan oliy imoratlar barpo etdi, ilm fan memorchilik, dehqonchilikni rivojlantirishga ahamiyat berdi. —Boburnomall hozirgi O'rta Osiyo, g'arbiy Xitoy, Eron,



Ozarbayjon, Afg'oniston, tarixi tarixiy geografiyasi, tarixiy voqealarining qariyb 100 yilga

yaqin davri haqida ma'lumot beruvchi qomusiy asar bo'lishi bilan birga birinchi marta eski o'zbek tilida bitilgan juda hajmdagi nasriy tarixiy geografik asar bo'lishi bilan ahamiyatlidir, zero bundan oldin bitilgan asarlar asosan fors va arab tillarida ona tilimizdagilarning ko'pchiligi badiiy dostonchilik yo'nalishida bo'lgan. Ayni vaqtda —Boburnomall eng muhim atamashunoslik va toponomik manba hamdir. Unda yer suv havo va turli tabiiy hodisalarga tegishli xalq so'zlari ko'plab topiladi. Masalan —tog'dagi g'or va kovaklarni havol derlarl

—Hidi yaxshi o'langni quruq qilurlarl —tup tuz yer, ne tog' va ne pushta ko'rinadurl

—Pushtalardan va qo'llardan tuzgi chiqg'ochl , —chopqin bilan yog'ar edil iboralaridagi so'zlar o'z o'zidan izohlab berilgan. Guzor kichik daryodan o'tadigan joy, jilg'a kichik soy , daryocha nayshakar – shakarqamish, pushta – tepa, balandlik, qirlar, tangi - dara, tog' oralig'idagi yo'l, chuqur daryo vodiysi; uchma chuqur jar yoqasi, tik yonbag'ir; o'lan-o'tloq, yer, keng maydon, suv yoqasi-qirg'oq; choqor- toshqo'rg'on; yayloq-yaylov, keng dala. Boburnomada qo'l so'zi ikki manoda ishlatilgan. - biri suv qozg'on jarlar, ikkinchisi daryo irmog'i . asarda daryolarda suvning kamayishini - suv kichuk bo'lganda, suv toshqinini esa, suv kirganda deb ataydi. Davonlarda qor bosib qolishini – yo'llar bog'lanur deb , daryolar qo'shilishadigan joyni suvning qotilishi (aralashuv) deb ifodalaydi. Shuning Rud – daryo, yakraxa – yolg'iz oyoq yo'l, kohpoya – tog' etagi, shohijo'ytarmoq (shoh ariq) deb turkcha so'zlarning tojikcha sinonimini ham ishlatgan. Bobur har bir tilni hurmat qilgan, til boylıklardan unumli foydalangan, forscha afg'oncha, hindcha atamalarni dadil ishlata vergan.

Ba'zan ularga izoh ham bergan. —Boburnomall XVI asr boshidagi joy nomlari (bir mingdan ziyod) o'sha davr holatida va transkripsiyasida bergan. Bu nomlarning ko'pchiligi ba'zi fonetik o'zgarishlar bilan shu kungacha mavjud. Ba'zilari unitilib ketgan. —Aksi – Kitoblarda Aksikat bitirlarl —Toshkent viloyati .. kitoblarda shosh bitirlar bazan Choch bitarlarl —O'ratekaxim , asl oti kitoblarda Ustrushna va Ustrush ham biritlarl, —Kesh shahrini Bahorlar sahrosi va shahri va boshi va batamom xob sabz bo'lib uchun Sharhsabz ham derlarl —Kopdibodom bodom yaxshi bo'lur. Bu jihatdan bu ismga mavsumdir. —bu tog'da qor hargiz o'ksimas, bu jihatdan g'olibo Kohi Safiz (Oq tog') derlar l —Afg'on ko'talni (davonni band derlar, G'or sari bu ko'tal bilan borurlar g'olibo ul Jahotdan G'orband derlar) .Asardagi nomlar izohi orqali ko'pgina joylarning ma/nosini tushunib olish mumkin. Hindiqush tog'laridan bir ko'talning nomi To'l deyiladi, bu eng yaxshi davon bo'lsa ham, yo'li uzoq ekanki , nomi shunga yarasha to'l - uzoq (geografik uzoqlik sharqda to'l deyilgani ma'lum.)

—Boburnomall da Himolay nomi uchramaydi, ammo Himolay etaklarini —Sivolik Pazrvoz l derlar hind tilida siva – chorak , lak – yuz ming parvat – tog' sivolik Parvat – chorak vaqt yuzming tog'kim, yuzyigirmabeshming tog' bo'lgay.

Deb izohlagan. —Kashmiri tog'da yashovchi Kas qabilasi nomi bilan bog'liq ekanligini yozadi. Agra yonidagi bir darvoza nomi Hotaypul deyiladiki Hindlar Xitoy deb filni, pul



darvoza – filda darvozasi deyoilishi sababiga darvoza chiqishidan fel rasmi chizilgani tufaylidir.

—Borurnoma|| o'sha davrlarda qo'llanilgan o'lchov berliklari ham izohlangan. —yig'och – 8 km, Kiruh – 2,5 km, sha'ri 2,4 km, bir o'q otim yer – 110-125 m, quloch – 120sm, bir kunlik yo'l – 40-45 km, tushlik yer – yarim kunlik masofa va boshqalar ishlatilgan. —Yana Qarshi viloyatidirkim Kamobroq yerdir. Bahori ho'p bo'lur, Samarqanddan janub saridir. Bir nima g'arbga moyil, 18 yig'och yo'ldir. || hozirgi masofasi ham 144 km aniq bo'lib chiqadi.

—Kuhak suyi shimolidan oqar. Samarqanddan ikki kiruh bo'lg'ay – demak

Samarqanddan Zarafshongacha 5 km, bu masofa ham ancha aniq. Bunday misollar shuni ko'rsatadiki Bobur asarlaridagi geografik voqeeliklar juda aniqlik bilan berilganligi bilan katta ahamiyat kasb etadi.|| —Boburnoma|| ning chinakkam geografik asari ekanligini , unda berilgan joylar tarifidan ham bilsa bo'ladi. Shahar va o'lkalarning geografik o'rni tabiiy sharoiti aholisi xo'jaligi ma'lum tartibda tasvirlanadi. Tabiat boshqa hududiyligidan abekt sharoiti bilan taqqoslanadi. O'simlik va hayvonlarning diqqatiga sazavor turlariga ko'proq to'xtatiladi. Biror ob'ekt nomi tarixi bilan bog'liq xalq orasidagi rivoyat hikoyatlari keltirarlar.

Zaxriddin Muhammad Boburning geografik merosi uning tarixiy sheriya sohasidagi madaniy meroslari bilan qo'shib qorishib ketganki, ko'p qirrali olim va shoir sifatida xalqimizning bu daho farzandi hammamiz faxrlanishga haqlimiz. Zero Bobur asarlari tengi yo'q xazina. Uning asarlarini o'qigan kishi ularda geografiya biologiya astranomiya va boshqa tabiat fanlariga oid boy daliliy ma'lumotlarga duch kelishi mumkin. Bobur sayohatchi o'lkashunos, donishmand, tarixchi va tilshunos bo'lish qatorida joy nomlarining tarixi va manosini chuquqqr tahlil etgan toponimist nomshunos olim bo'lganligini his etamiz.

Badiy adabiyotga doir merosda ham toponimika va biografik atamashunoslikka tegishli ma'lumotlar talaygina.

Alisher Navoiyning asarlaridagi toponimika va lug'atshunoslik haqida ba'zi mulohazalarni keltirib o'tamiz. Atrofini o'rab turgan tabiatning falsafiy mulohazasi bo'lishi bilan ahamiyatlidir.

To'tti yashil ho'lla kiyar shevasi,

Tugmalari bo'ldi aning mevasi.

Bu paytda daraxtlar yashil libosga o'ralib, meva tugishi va tugkan tugmalarning mevaga aylanishi tabiatning muayyan qirrasini ifodalaydigan atamalarda badiiy vositalar orqali tasir etilmoqda.

A.Navoiy kurrai zaminimizni naqadar aniq tasavvur etganligini geografiya tayanch atamalari va tushunchalari - yo'l orol, dengiz, shamol, osmon, va boshqalarni o'z o'rnida bir neha muqobil variantda ifodalanganligini ko'ramiz. —Layli va Majnun|| dostonining na'fol qizining Majnun bilan nikohlash marosimi quyidagicha ta'riflaydi.

Oy bilan Quyoshni ayladi naqd,

Boshi uzra sochdilar base naqd.

Chun mehr kelish kibi yoshundi,



Tun yerga kuyav kibi bexundi.

Gardur ko'ribon bu ish muofiq

Kelturdi to'qqiz taboqda sochiq.

Bu tasavvurdagi kelinni oyga , kiyovni quyoshga o'xshatishi mehrning kelindek ichki hisligi, kiyov ta'zimining gulning yer yuzasiga tegib turishi naqadar yuksak badiiy ifoda ekanligini ko'ramiz. Ayni chog'da bu yerdagi tabiiy fan atamaları orqali tabiiy hodisalar mohiyati chuquqr idrok etilib, mohirlik bilan o'z o'rnida ishlatilganligi ko'ramiz. Alloma shoir tabiatidagi bitta hodisa yoki jarayoning turli holati va qirralari xalqda ishlatilgan so'zlar bilan izohlanishini ko'rishimiz mumkin. Shamolning tezligi qaysi vaqtda bo'lishi – yel, sabo, nasim, bod shamol, dovul, bo'ron, to'fon kabi atamalar bilan, osmonning holati ko'k gumbazi, hamol ayvoni, osmon, samo, gardun, sipehr so'zlari bilan sifatlanganlik va real voqeelik jihatlarini ko'ramiz.

Geografik nomlar Navoiy dostonlarining badiiy yuksaklik va real voqeelik Movaraunnahrning geografik o'rni – oqib hadi sharqida Sayhun suvi Borib hadiya g'arbida Jayhun suvi deb —Saddi Iskandariyl dostonida tarannum etiladi.

Kovakibganib yeti taqsim erur,

Jahon mulki ham yeti iqlim erur.

Xuroson badandir Xiriy jon anga

Xirijiy jon badandir Xuroson anga

Demak insonlar yashaydigan dunyo yettiga taqsim qilingani ular yetti iqlim atalishi Navoiyning dunyo aniq ilmiy tasavvur etganligini ko'rsatib, —Rubiy Maskunl - obod yerlarni yetti iqlim, kavokib atamaları bilan ifodalangan. Xuroson mamlakati dunyoning obod o'lkasi (Xuroson Lug'aviy manosi —Quyosh yurtul demakdir) dunyoning jasadi bo'lsa ,

Xirot shahri, bu jasadning jonidir deb ham badiiy ham ilmiy jihatdan aniq ifodalaydi.

Bo'lu yuz pushta xamuk sel chog'i,

Turar o'z o'rnida Alburuz tog'i

—Farhod va Shurinl dostonida keltirilgan bu baytlar Eronning m Kaspiy dengiziga tutash elburuz tog'ining dengizga tutash shimoliy yon bag'ri nam subtropik iqlim sharoitiga ega. Dengizdan esgan namli havo nihoyatda seryog'in bo'lganligi – yuzlab pushtalar - tog' tarmaqlaridan tashkil topgan bo'lsa-da juda kuchli yomg'irda ham o'z o'rnida turib nomli havo massasini janub o'tkazmaydi, natijada shimoliy yon bag'ir sernam suptropik iqlim bilan xarakterlanishi badiiy tasvirlanmoqda.

Ulug' shoirning —Sababi Sayyozl dostoni o'z mazmuni bo'yicha badiiy geografik tasvir deyish mumkin.

Dedilar Kishvadi durur dilkash,

Oti ham sharhsabz erur, ham Kesh

Xizr monand Sabzadan rangi

Sabzasi suvi ko'rgusi rangi,

Sharhsabz o'ldi bizga chun mulkat

Yo'q ajab gar yashil dirur Kisvat

Insoniyatga Amur Temurdek shaxsni bergan. Sharhsabzni badiiy yuksak tabiati



hayotining o'zidek yashil (o'sish - rivojlanish) shahar ekanligini rangin bo'yoqlarda real voqealik orqali tarannum etmoqda. Getersifik atama va geografik nomlar —Xamsal dostonlarining mazmunini tashkil etadi. Orol mamlakat tog', dengiz, shahar, yo'l, bandor va boshqa geografik atamalar orqali voqealar mohiyati hikoyatlar yo'nalishi ochib beriladi.

Yana yuz ming o'zbek mo'g'ul birla zam

Yuz ellik ming sari qalmoq ham

Bo'lib barchasi olti yuz ming kihshi

Bariga hunar qabila razm ishi

Yasab Chin elin turkiy chiniy Sirisht

Tarovatda andog'ki bog' behisht

Darhaqitat o'zbek, rus, mo'g'ul, qalmoq va boshqa ellar xalqlar Eron Turon, Dashti

Qipchoq, Chin Hind kabi mamlakatlar ko'p bora tabiatiga mos ravishda Navoiy asrlarida tasvir etilganing guvohi bo'lamizki, ulug' shoir geografik nomlar tasvir etilayotgan vaohaning o'ziga xosligiga kuchaytirish uchun foydalangan.

Muhammad Solihning —Shayboniynoma || dostoni ham Sharq geografiyasi , xususan O'rta Osiyoning tarixiy geografiyasini tasavvur etishda muhim manbadir.

Qarshining qushlari bisyor bo'lur

Qushchining tumosi tayyor bo'lur

Turna-yu g'oz farovon asru

Qirg'ovul bog'larida sonsiz.

Qirchog'oyning sog'inishidan sonsiz

Demak, bu parchada Qarshining qushlari ko'p va turli-tuman bo'lishi ayniqsa tus tovuq qirg'ovul qarchig'oy, turna va g'ozlarning bisyor ekanligi tanitilmoqda.

Viloyatimizning Kesh, Kaspi, G'uzor kabi shaharlari Qarshi shahrining Qashqadaryo, Surxandaryo, janubiy Tojikiston, sharqiy Turkmaniston shimoliy Afg'oniston uchun muhim strategin o'rni qayta-qayta ta'kidlanmoqda. Shunday qilib, geografik tasavvur, geografik nomlar atamalar va ualrning muayyan joy tabiati bilan bog'liq tasvirlash yirik asarlari uchun xos xususiyatdir.

Tarixiy sarguzasht va lug'atshunoslik asarlari toponimik manbalar sifatida.

Ummy tarix tipida yozilgan asarlardan biri Ma'sud Usmon Ko'hisoniyning —tarixi Abulhroniy|| bo'lib, unda XV asrning ikkinchi yarmida Sibir , Ural va O'rta Osiyoning hududida o'zbeklar davlatining tuzgan Abulayrxonning xonlik tarixi bayon etiladi. 1428 yilda Abulayrxonning xonlik masnadiga ko'targan 30 ga yaqin qabilalar sanab o'tiladi.

Burxut, Jot, do'rmon iyjon, qoonboyli, qorliq, kenagasi qiyot, qo'ng'iro't, mang'it masshtab, Nukus, uyg'ur uyshun o'tarchi chimboy. Asrning hozirgi o'zbeklar tarkibiga kirgan ulug' va qabilalar yashagan tarixiy davr bu davrda mavjud bo'lgan geografik nomlar nuqtai nazaridan ahamiyati kattadur. Sanab o'tilgan qabilalar va urug'lar hozirgi kunda o'zbek milati tarkibida shevalari ayrim urf-odatlar saqlagan holda yashab kayrimlarning nomi sifatida geografik xaritalardan mustahkam o'rin olgan - qo'ng'iro't shahri mang'it , chimboy quronlari, nukus shahri va viloyatimizdagi Nukus qishlog'i Qiyot Qorliq Uyshun masit nayman, saroy qishloqlari - o'zbek urug'lari nomi bilan ataluvchi etnonim ekanini hech kimda shubha tug'durmaydi. —Tarixi Abulxayrxoniyl asarida Sirdaryoning o'rta



oqimidagi Sig'noq, Sarvon, Suzoq, O'zgand, Oqqo'r'gon, Arhuh va boshqa shahrlar nomi va geografik o'рни haqida ma'lumotlar beriladi. Ushbu asar o'zbek ulusi bilan Temutiylar davlati o'rtasidagi munosabatlarning tarixini o'rganishda katta ahamiyatga ekanligini eslatib o'tamiz. Ulug'bek fojiali o'limidan (1449 yil 25 oktabr) keyin Temuriy Mirzolar o'rtasida toju taxt uchun kurash benihoyat kuchayadi.

Xoja Abdulloh Axrorning maslahati bilan Sulton Abusaid Sig'noqqa Abulxayrxon huzuriga yordam so'rab boradi va uning bevosita qo'llab quvvatlashi bilan 1450 yilda Abusaid Mirzo Temuriylar saltanatining qo'lga kiritdi. O'shanda Abulayrxon marhum Ulug'bek Mirzoning qizi Robiya sulton begimga uylanib qaytdi. Abilxayrxon Robiya Sulton begimdan ikki o'g'ilik bo'ldi. Ko'chkinchixon va Suyunchixo'ja Mirzo Ulug'bek nabiralaridir.

Mashhur turkiyzabon shoirlardan biri Komoliddinxon Binoyining —Shoyboniynomall asari Shayboniixon yoshligi Buxoroda madrasasida taxsil olganligi shoirning o'zi Xirotdan

Samarqandga Temuriylar saroyidan Shayboniy saroyi kelib qolishi kabi qimmatli tarixiy ma'lumotlari bilan birga juda ko'p shaharlar masalan xarodning vaizr Adoh, Bo'ldimsoh shaharlari haqida ham ma'lumot berishi bilan ahamiyatlidir.

TARIXCHI Abulxayr Fazlulloh Ro'zbehonning —Mehmonmonai Buxoroll asari ham geografik toponimika jihatidan muhim manba hisoblanadi. Dashti qipchoqdagi o'zbeklar uch

toifaga bo'lganlar. Shayboniylar ya'ni jochixonning beshinchi farzandi Shaybon naslidan

bo'lgan erur va qabilalar . Qozoqlar, ya'ni Abulayrxon hukmronligining so'ngi davrda Shayboniylardan ajralib chiqib dashti Qipchoq sharqiy rayonlari - cho'l va Quziboshiga

ko'chib ketgan turk-mo'g'il qabila 3. Mang'itlar

Asar muallifi asarning bir bobida Sayhun daryosi, Turkiston diyorining tavsifi Arhuq qal'asining tarifini keltiradi. —Turkiston iqlimi barcha iqlimlardan a'lo iqliml Turkiston 30 ta qal'a qaraydi. —Sirdaryol jannatdan chiqqan daryolardan biri bo'lib, uni Xo'jand daryosi, o'zbeklar va mo'g'illar Sir deb ataydilar. Uzunligi 300 farsak deb nomlarni toponimik izohini keltiradi. Dashti Qipchoqning sathi 600farsak daryolari va ko'llari ko'p ob-havosi yaxshi, chorva boqish uchun moslashgan. Yaylovlar sultonlar va qabila boshliqlari o'rtasida qat'iy taqsimlangan. Dashti Qipchoq xalqi namat bilan o'ralgan maxsus aravalarda istihomat qiladilar, janubdan shimol sari ko'chib yuradilar. Yozni Itil (Volga) Tobol daryolari bo'yida qishni esa sohilida o'tkazadilar. Bu malumotlarni Shayboniixon Ruzbehonga qo'shni O'grar shahari qarshisida turgan paytda aytib bergan. Tarixdan ma'lumki Muhammad Shoyboniixon shoir va o'qimishli donishmand hikmron bo'lgan.

Keltirilgan ma'lumot dashti Qipchoqning tarixiy geografik o'rnini belgilashda juda muhimdir. —Mehmonnomai Buxorodal Samarqanddan Qarshiga jo'nab ketish Qarshi bilan

Samarqand oraliqidagi manzilar haqida ma'lumot beriladi. Qohi Mohiyon (Samarqanddan ikki farsak masofada) Qohlik (beshfarsak) Damashq oqcha Buho haqidagi fikr yuritilgan. Oqcha Buho yaylov Qarshi chorbog'i, bu yerda Shayboni qurdirgan qasr haqidagi tarixiy geografik ma'lumotlar toponimika uchun ahamiyatlidir. O'rta Osiyo



Qozog'iston Sharqiy Turkiston shuningdek ularning shahar va yirik geografik ob'ektlari haqida 1541-1545 yillarda Kashmirda yozilgan —Tarixi Rashidiyl asari muhim manbva hisoblanadi. Boburning xolavachchasi bo'lsa, Mirzo Muhammad xaydar bu tarixiy geografik asarning muallifidir. Toshkentda tug'ulgan Toshkent xoni yunusxonning nevarasi bo'lgan Muhammad Xaydar Mirzo Dug'latning otasi Toshkent va O'rtatepa shahrining hajmi bo'lgan Olimning otasi Husayn Kuragon Shayboniyxon buyrug'iga ko'ra Xirotda 1908 yilda qatl etilgan. Haydarning hayoti xavf ostida bo'lgani uchun otasining do'stlari Buxorodan Qobulga yashirin olib ketilgan. Bubur bilan birga bo'lgan qashqar Yorkent, Oqsuv, Mo'g'ilsiton Hindiston, Kashmir yerlarida turli vazifalarda ishlagan. Qashqar va yerkent hokimi Abdurashidxonga bag'ishlab yozilgan bu asarning nomi —tarixi Rashidiyl shundan Haydar Mirzaning geografik saviyasi bilan bo'lgan.

Issiqko'lni chiroyli badiiy tariflab, uning oqmas yo'l ekanligini yozadi. Balxash (Ko'kcha dengiz) yo'lini o'lchamlari Kashmirning mukammal tarifi, Tebetning —xaloyliqning kam yetishi kabi geografik ob'ektning chinakkam izohini keltiradi. Hofiz Tonish Buxoriyning —Shafarnomai shohiy nomli asari Buxoro xoni Abdullahon ikkinchining tarixi bo'lish biln birga O'rta Osiyoning tarixiy geografiyasi shahar va boshqa ob'ektlarning bayoni berilganligi bilan ahamiyatlidir.

Mahmud ibn Valining —Sirlar dengizil o'rta asrning eng so'ngi chinakkam geografik asardir. Masalan —Xuroson – to'rt viloyatga bo'linadi – hirot, Nishopur, Balx va Marv ..Xuroson Eroniy so'z bo'lib, Xuroftob son yer ma'nosidadir deb izohlaydi olim. Shayx Sulaymon Buxoriy ham sayyoh ham lug'atchi olimdir. Uning lug'ati chig'atoy va Turkiy Usmoniy geografik atamashunoslik va toponimik jihatdan qimmatli manba hisoblanadi.

- _____
-

Bundan 150 yillar oldin yaratilgan bu asar geografik nomlar lug'ati sifatida tarixiy geografiya uchun o'z ahamiyatini yo'qitgan emas. Masalan —Andijon, Farg'ona, qit'asida mashhur bir balda ismidir, nomi qadim Odoqdiril Xorazm chegaralari avvalgi pytaxti ko'hna Urganch hozirgisi Xivoh dir deb aniq yozadi. Arno-ariq, og'och masofa o'lchovi, quyur ikki suvning quyilishi, oyoq – sof, shaffof, oyli kecha, qoq-suv to'planadigan joy, selob yomg'iri kabi atamalarning izohli lug'atini tuzgan. Qori Rahmatulloh Buhoriy 1886 87 yillarda Turkmaniston, Eron, Kavkaz, Turkiya, Arabiston, Iroq sayohatida bo'lib, qaytgan, yo'l xotiralari maxsus asar va risolalar tarzida tartib berilgan.

Joy nomlai va geografik ob'ektlarning atoqli otlari hamma vaqt muayyan informativ – axborotlar manbai hisoblanadi. Buning ustiga XX asr boshlarida qator fanlar alohida ilmlar sohasi sifatida shakllanib, ularning muayyan tushuncha qoida va qonunlarni ifoda etuvchi ilmiy termin, so'z, iboralarni lug'aviy jihatdan izohlash ko'p tartibga qo'yilgan.

O'zbekistonda tabiiy fanlar – geologiya, geografiya, geomorfologiya, biologiya biogeografiya,tuproqshunoslik, fizika, kimyo va boshqa ilm sohalarida yangi terminlar paydo bo'ldi. Bu ilmiy ifodalarning o'zbek tilida mazmun-mohiyatini aks ettirgan ekvivalentlik muhbilini topish va izohlashga ehtiyoj kuchaydi. Tilning lug'at tarkibiga



kirgan bunday ilmiy atamalarni tilshunoslik qonun-qoidalari asosida izohlash ilmiy atamashunoslikning vujudga kelishiga olib keldi.

Geografiya va umuman Yer haqidagi ilmlarda qo'llaniladigan o'zbek tilidagi so'z va iboralarni shu bilan birga boshqa tilardan kirib kelgan so'zlarni o'zbek tilining lug'at boyligi asosida aniq so'z birikmasi bilan ifodalash masalasida o'zbek ilmiy merosimizning bilimdoni va targ'ibotchisi H.hasanovning ishlari alohida ahamiyatga ega. Qomusiy ilmlar sohibi bo'lgan ustos H.Hasanovning 1964 yilda —Fan II nashriyotidan —Ruscha – O'zbekcha va o'zbekcha – ruscha geografiya terminlari II kitobi beqiyos ahamiyati kasb etadi. Kitob geografiya va boshqa tabiiy fanlar uchun manbai bo'lishi qatorida o'zbek tilida lug'atlar yaratish tarixi bo'yicha malumotlar beruvchi manba hamdir. O'zbek tilida dastlab lug'atshunos olim. Odam Ibrohimov —Geografiya atamalaril nomli kitobini O'z.Dav.nashriyoti (Toshkent 1935) yozib chop etirgan. Kitobda geografik nomlar bilan

birga yonma – yon geografik terminlar ham berilgan. Hasanovning ko'rsatishicha tarminlar malum bir tartib bilan berilmagan. Shunga qaramay bu lug'atning o'zbek tilida chop etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. 1940 yilda prof. Malitskiy rusch-o'zbekcha terminlar lug'ati ,

Bektemirov, Saidrasulov.

XX asr fanlarning defferentsiatsiyasi (tarmoqlarga bo'linishi) va integratsialashuv

jarayonlari jadalashgan asrdir. Zotan tarmoq va sohalarning chuqur tadqiq etilishi yangi tarmoq fanlarining vujudga kelishiga sharoit yaratdi. Bir qator tabiiy va ijtimoiy fanlarning muayan yo'nalishlari tutashgan bo'g'inlarda yangi —oraliqII fanlarning vujudga kelishi ro'y berdi. Huddi shunday fanlardan biri toponimika bo'lib, —yuqorida takidlaganimizdek tilshunoslik geografiya tarix va boshqa fanlar o'rtasida vujudga keldi. Joy nomlarining ma'nosi qayin tildan olinganligi qanday tarixiy va ijtimoiy voqeylik natijasi ekanligini tadqiq etadi. Shu bilan birgalikda joy geografik sharoiti aniq nomda joy geografik sharoiti aniq nomda mujasamlashivi masalasini toponimika o'zgaradi.

Nomlarni bilish faqat ilmiy va marifiy jihardan ahamiyatli bo'lmasdan amaliy va mafkuraviy jihatlardan katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 11 avgustda chiqarilgan O'zbekiston Respublikasidagi ma'muriy hududiy birliklar aholi punktlari, tashkilotlarga va boshqa toponimik ob'ektlaga nom berish ishlari tartibga solish to'g'risidagi qarori miliy qadryatlarimizning ko'z ilg'amas— qismiga tarixchi tilshunos geograf mutaxassislar qolaversa bu ishga bosh qosh bo'lgan ma'sul kishilar diqqatini jalb e tadi. Va tan tarixiga va qadryatlariga yanada jiddiy munosabatda bo'lishini talab etadi. Lug'at tarkibiga kirgan so'zlar har bir sohasida muayyan tushuncha qonun- qoidalarni ifodalaydi. Geografiya termini bu qadimiy Yer ilmining tushuncha va qonunlari mazmunini ifodalab mustaqil fan sifatida mavjud bo'lishini takidlaydi. Shu boisdan bo'lsa kerakki geografik terminlarni o'rganish va tartibga solish toponimika fani bilan birgalikda olib borilgan. O'zbekistonda dastlabki geografiya terminlarini tuzish XX asrning 30-40 yillaridan boshlangan. Garchi —Devoni Lug'atit TurkII —Lug'ati Chig'atoy va turki usmonII va boshqa lug'atlar qadimdan mavjud bo'lsada hozirgi zamon geografiyaning termin va so'zlariga asosan XX asrda tartib berildi. Dastlabki geografik lug'atlardan biri



Odam Ibrahimov tomonidan yozilgan —Geografiya atamalaril lug'ati bo'lib, lotin imlosida 1935 yilda nashr etilgan. Lug'atda geografik nomlar bilan birga yon -ma yon terminlar ham berilgan. Terminlar ro'yhati betartib tasodifiy toplangan bo'lishiga qaramay lug'at tuzish tajribasida ma'lum ahamiyat kasb etadi. 1940 yilda Prof. Mallitskiy va G'furovlar tahririda nashr etilgan —ruscha - o'zbekcha geografiya terminlar lug'atil ancha mukammal ishlangan, terminlar asosan to'g'ri, ammo \xalq so'z terminlaridan foydalanilmagan. Bir guruh geografik terminlardan umuman foydalanilmagan. Mahmud Qoshg'ariyning —Devoni lug'atit Turkil Sulaymon Buxoriyning —Lug'ti chig'atoyi va turki usmoniyil XVII asrda Hindiston podshosi Boburiy Avrangzeb taklifiga muofiq Muhammad Yaqub Changiy tomonidan yozilgan Chig'atoycha-forscha —qilurnomall lug'atlaridagi so'zlardan foydalanilmagan. Shunday bo'l- sada —Geografiya atamalaril va —Qisqacha ruscha - o'zbekcha terminlar lug'atil qo'llanmalari O'zbek milliy geografik terminshunosligida muhim bosqich bo'ladi. Har ikkala lug'at lotin alifbosida chop etilgan bo'lib, muayyan kamchiliklarga qaramay geografik terminshunoslikda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Xalq terminlariga etibor berilmagan yasama so'zlar keltirilgan shuningdek ustun stremnina skala praduxt, nurga poyma ples, obolochkka, nonos, korabel kabi o'zbek tilida shundayligicha berilgan. (Ustun-tik, qiyalik, utes qoya, stremnina - tez oqar joy, skala qoya tosh, preduxt- mahsulot, nurga - shirabo'ron, poyma-qayir, plyos-daryo o'zani sayozligi, obolochka - qobiq, nopos- yemirilgan jins to'plami) 1953 yilda o'zbek milliy geografiyasining tamal toshini qo'ygan Dolimov Qarayev, Hasanov, Mirboboyevlarning —Qisqacha ruscha-o'zbekcha geografiya terminlari lug'atil ni tuzib, o'quv pedagogika nashriyoti tomonidan nashr ettirdilar. Bu lug'at haqida matbuotda uni o'quv ishlarida qo'llash uchun qulayligi xususida qator taqrizlar elon qilindi. Lug'at tuzush masalasi boshqa fanlar uchun muhim ahamiyatga bo'lgani uchun M.Bohodirov, Ya. Nosirov, M.Umarov, H.Mirohmuhevlarning —qisqacha ruscha-o'zbekcha tuproqshunoslik terminlari lug'atil A.Sodiqov, —Geologiya terminlar lug'atil Z.N.Saidnosirova T.V. Derxsnov

—Ximiyadan qisqacha izohli ruscha-o'zbekcha lug'atil S.S.Sohabiddinov —qisqacha ruscha-

o'zbekcha botonika terminlari lug'ati, Q.Zokirov M.M.Nabiyev, U.Pratov, H.A.Jomolxonov

—ruscha - o'zbekcha botonika terminlarining qisqacha izohli lug'atil va boshqa o'quv qo'llanmalari yaratilib, ilmiy terminshunoslik asoslari yaratildi

Rus tilidagi geografik terminlar lug'atini o'zbek tiliga tarjima qilib, nashr etish XX asrning 50-60 yillarida ko'proq ahamiyatga berildi, chunki geografiya faning terminlari mazmunini izohlash fanni bilishda muhim jihat hisoblanadi. A.S.Borkov —Tabiiy eografiyadan izohli lug'atil E.M. Murzayev V.Murzayeva —Mahalliy geografik terminlari

lug'atil kabi izohli lug'atlar ko'p nusxada chop etildiki geiografik lug'atshunoslik rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Oliy maktab geograf olimlari F.N.Mil'kovning



—Slovar – lopeidiya – I-V jildlar (1959-1963) o‘z amaliy faoliyatlarida foydalanmoqdalar.

Aslini olganda H.Hasanovning —Geografik terminlar lug‘ati || atoqli geografik, nomlar – toponimlarni qamrab olmaydi, lekin atoqli geografik nomlarning geografik tushunchaga aylangan —Osiyo maksumumill , —Islandiya maksumumill kabi iqlimiy, geologik – geografik turdosh otlarga aylanib qolganlarini izohlab beradi. —Geografik terminlar lug‘atini ning ahamiyati shundaki, o‘zbekcha geografik terminologiyaning manbalari , xalq geografiya terminlari O‘rta Osiyo xalqlari tillaridan olingan so‘zlarning rus geografiyasiga, ayni vaqtda xalqaro geografik terminologiyaga kirgan - adir barxan, bagora Djeuliv, Kiyaris, qishloq, kurgon, qir, soy, sel, soz, sir, taqir , to‘qay, chink, cho‘l, sho‘r va boshqa so‘zlar izohlab va asoslab berilishidir. Xalqaro geografik terminologiyada ishlatilayotgan bunday so‘zlar lug‘at tarkibining bir ismi bo‘lish qatorida darslik va geografik- geologik adabiyatlarda muayyan geografik mazmundagi voqiylik va hodisani ifodalashda ishlatilmoqda. H.Hasanov asarida o‘zbek tili lug‘atiga kirgan geografik terminlar - (okean passat kompos va hakoza – ikkiyuz so‘zdan ko‘proq), rus tilidan aynan tarjima qilinib, kal‘ka yo‘li bilan yasalgan so‘zlar

(vodorazdel- suv ayirg‘ich, vodoxrapilishe – suv ombor,) kabi so‘zlarni aniq iohlab bergan.

Arabcha – forsha, turkiy so‘zlarning geografik mazmunini ifodalashda xalqaro geografik terminologiyada qo‘llanib kelayotgan muhobil variantlarini ham tariflab beradi. Shuni aytish kerakki H.Hasanov vaqtli matbuotda muayyan chalkashliklar bilan ishlatilayotgan cho‘l so‘zini chinakkam ma‘nosini izohlab beradi. Kitobning asosiy qismi rusch-o‘zbekcha terminlari lug‘ati bo‘lib, unda kiril imlosida alfavit tartibida rus tilidagi terminlarning o‘zbekchada ishlatilish va yozilish variantlari berilganki buni o‘zbek geografik terminshunosligida katta voqea qaramoq lozim. bor yo‘gi besh ming nushada chiqarilgan bu muhim geografik qo‘llanma allaqachon nodir kitoblar qatoridan o‘rin olgan.

O‘zbek toponimika faning taraqqiyotida qomusiy geograf alloma H.Hasanovning —O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan || (Toshkent —Fan|| 1965) nomli to‘rt ming nushada chop etilgan asari beqiyos ahamiyatga ega. Kitobning toponimika uchun birinchi navbatdagi ahamiyati shundaki, toponimlarni yerning tili deb tariflab bu fan muhiyatini tushuntirib berganligidir.

Birinchi —Toponimika tarixi || deb nomlangan qismida toponimika va joy nomlarini o‘rganish ta‘rixi, tarixiy toponimiya, tayanch tushunchalar , O‘rta Osiyo joy nomlarining paydo bo‘lishi olimlarning asarlarida toponimika qanday ahamiyatga ega ekanligi tariflangan. Kitobning ikkinchi qismi —Qisqacha toponimik lug‘at|| ga bag‘ishlangan bo‘lib, Amudaryo Andijon, Ashg‘abot, Bortang, Balxash, Borsa-Kelmas, Kaspiy, Bo‘kantov, Sarisen, Atrou, Sirdaryo, Termiz, To‘palang, va boshqa o‘rta Osiyoning makro va mezo toponimlari paydo bo‘lishi tarixiy lingvistik jihatdan tariflangan. Kitob —tarixiy- geografik, nomlar izohat|| bilan tugaydi. O‘rta Osiyo toponimlarining tarixiy geografik o‘rni va nomlanishi haqida qimmatli manba hisoblanadi. H.Hasanovning —Geografik nomlar imlosi (Toshkent —Fan|| 1962) ||



—Yer tilil Toshkent O‘zbekiston 1978. —Geografik nomlar siril (Toshkent —Ozbekiston 1985) kitoblari - Respublikamizda toponimika va geografik atamashunoslik faning asoschisiga aylanganini ko‘rsatadi. —Geografik nomlar siril ilmiy - ommabop ta‘rif bo‘lsada toponimika bilishga ehtiyoji bo‘lgan barcha mutahasis, o‘qituvchi, barcha o‘zbek kitobxonlari uchun har doim ma‘lumotnoma sifatida o‘qishga arziydigan zaruriy qo‘llanmaga aylanib qolgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero —Yerning tili || , —Tarixiy toponimiyal , —Beruniy va Bobur toponimiya hususidall, —Toponimistlar|| —Anana va yangilikl, —Nomlar qanday paydo bo‘ladil, —Eng xato noml, —Toponimlar||, —Toponimik o‘lkashunolsik || va —Toponimik lug‘at|| deb nomlangan boblar chuqur ilmiy va qiziqarli tarifda berilgan. Toponimika ilmi - Yer yuzidagi joy nomlarining turlari, hususiyatlari, shakllanish qonuniyatlari haqida bahs aytadi.

Geografik nomlar o‘zgaruvchan, nomlarning o‘ziga xos siri haqida bilish geografiyadan ta‘lim beruvchi muallimlar bilan bir qatorda barcha barchasini qiziqtirishi shubhasiz. 1520 yilda dunyo aylana sayohatni amalga oshirib, Yerning shar shaklda ekanligini va dunyo okeaning bir butunligini amalda isbotlagan F.Magellan janubiy sharqiy Osiyodagi orollar to‘plamini Ispan shahzodasi Filip ikkinchi sharafiga Filip orollari deb atagan. Ruschadan o‘zbekchaga tarjima qiluvchilar Filippin degan. Ruscha egalik qo‘shimchasi bilan noto‘g‘ri tarjima qilganlar bu xato hozirgacha xaritalarda saqlanmoqda. Filippin davlatining hukumati va fuqorolari orollarning tarixiy Maharlik - ulug‘vorlik, mahalliy nomini tiklash masalasi kun tartibida turibdi. Shu Filippin toponimining paydo bo‘lishi voqeasi toponimika faning qiziqarli va ommabop soha ekanligini yana bir bor isbotlandi. Buyuk geografik kashfiyotlar davrida va undan keyingi vaqtlarga vujudga kelgan Amerika, Avstraliya, Tinch okean regionlarda paudo bo‘lgan.

Ko‘pchilik nomlar haqida ham shu fikrni bildirish mumkin. Professir H.Hasanovning o‘zbek milliy toponimika fanining asoschilaridan deyishimizning boisi ham bunday yangidan paydo bo‘lgan nomlarning tarixi manosi, geografik imlolari qatiylashtirgani , standartlashtirgandir. XX asr o‘zbek toponimikasidan eng ko‘p ish qilgan olimlar jumlasiga geografiya fanlari doktori S.Qorayev, Qarshi davlat unversteti pro f. T.Nafasov , O‘zbekiston milliy unverstet professirlari R.Rahimbekov Potihkamol G‘ulomovlarni ko‘rsatish mumkin. S. Qorayev

—O‘zbekiston|| nashriyotidan chiqarilgan —Geografik nomlar manosil , kitoblari chiqarilgan.

Shu jumladan shuningdek boshqa olimlar birgalikda chiqargan asarlari muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qilmoqda. S.Qorayev , P.G‘ulomov. R.Rahimbekov tomonidan tuzilga

—Geografiyadan izohli lug‘at|| P.G‘ulomovning —Jo‘g‘rofiya atamalri va tushunchalari izohli lug‘atil va boshqa joy nomalri va ulardan geografik talimda foydalanish metodikasiga bag‘ishlangan ishlari O‘zbekistonda toponimika va geografiya terminshunoslikning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Miliy Unverstetda ijod qilgan geografiya fanlari doktori marhum proffessor R.Rahimbekov bir qancha ishlar elon qilish bilan birga bir qancha ishlar elon qilish bilan birga bir necha nomzodlik ishlariga ilmiy rahbarlik qildi. Toponimika



sohasida 45 ta fan nomzodlari yetishtirdi. Atoqli geograf va filolik S.Qorayev —Toponimika O‘zbekistondal nomli kitobi bilan olib borgan toponimikaga doir ishlarni bir darajada xulosalaydi., toponimika va geografik terminshunoslik jabhasida kelgusida qilinajak ishlar haqida fikr yuritadi. Ayni paytda oldin nashr etilgan —Topshkent toponimlari|| , —Geografik nomlar ma‘noisi || kitoblarini mustaqillik mafkurasi talablariga binoan qayta ishlab nashr ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.azkurs.org
- 2.Wikipediya.org
- 3.til.gov.uz
- 4.Ziyouz.com.